

# International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

---

## THE ROLE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND METHODS IN INCREASING THE EFFICIENCY OF MOTHER LANGUAGE LESSONS

Bobomurodova Zebo Hamroyevna  
Karshi city 10th general secondary school  
senior teacher of native language and literature

**Abstract.** The article discusses the innovative pedagogical technologies and methods used in the education system today. The importance of increasing the effectiveness of mother tongue lessons was emphasized.

**Key words:** pedagogical technology, method, innovation, sentence fragments, linguistics, pedagogue, interactive methods, technology.

## ONA TILI DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA METODLARNING O'RNI

Bobomurodova Zebo Hamroyevna  
Qarshi shahar 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyoti fani katta o'qituvchisi

### Annotatsiya

Maqolada hozirgi kunda ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodlar haqida fikr yuritilgan. Ona tili darslarining samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, metod, innovatsiya, gap bo'laklari, tilshunoslik, pedagog, interfaol usullar, texnologiya.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallashi jahonning turli rivojlangan mamlakatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ta'lim sohihasida o'zaro hamkorlikni o'rnatishi katta yutuqlarga olib keldi. Mustaqillikdan keyin o'tgan qisqa davr ichida ta'lim tizimida juda katta o'zgarishlar bo'ldi, olamshumul kashfiyotlar va yutuqlarga ega bo'ldik.

Ma'lumki, fan va ta'lim doimo birlikda va o'zgarishda rivojlanadi. Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rgangan holda

# International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

zamonaviy metodlar va texnologiyalar asosida o'qitish masalalariga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor juda katta bo'lmoqda. Innovatsion va pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi - bu ta'limda tub burulish davri bo'ldi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi.

Innovatsion texnologiya va metodlar bu o'quv jarayonida asosiy boshqaruvchi - o'qituvchi, boshqariluvchi - o'quvchifaoliyati birgalkda yo'naltiriladi va bu jarayonda o'qituvchidan ham o'quvchidan ham mustaqillik va ijodkorlik sifatlarini talab etadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarning yuksak bilim cho'qqilarini egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o'qituvchi dars o'tishdan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rganishi va tadqiq qilishi lozim. Pedagog - ya'ni bola yetaklovchi, bolaga faqat tayyor fikr bermasligi kerak balki uning fikrini kengaytirishi, olamni o'rganishga imkon beruvchi vositalarni topa bilishga o'rgatishi zarur. Biz bir necha zamonlar an'anabiy uslubda ish olib bordik. To'g'ri, bu tizimda ham bolalarga bilim berildi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari shakllantirildi.

O'qituvchi ham o'quvchi ham bir qobiqda harakat qildi, buni qoliplangan tizim desak ham bo'ladi, har ikkalasida ham ma'suliyat yo'qoldi. Hozirgi kunda asosiy pedagogik texnologiyalar imperik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, adattiv, inkulyuziv va boshqa texnologiyalardir.

Dars jarayonida bu texnologiyalarni tanlay bilish - bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq FSMU texnologiyasi munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (o'quvchilarning o'quv-seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanishi mumkin, chunki bu texnologiya o'quvchilarning o'z fikrini himoya qilishga, mustaqil va erkin fikrlash, o'z fikrini boshqalarga asosli ravishda ifoda etishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchilarning o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda o'quvchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

O'tkazish texnologiyasi. Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqichda:

-o'qituvchi o'quvchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

# International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

---

-o'qituvchi darsda avval har bir o'quvchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi, va nihoyat, dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi haqida o'quvchilarga ma'lumot beradi;

-dars davomida har bir o'quvchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkinligi eslatib o'tiladi.

2-bosqichda:

-har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F (fikringizni bayon eting);

S (fikringiz bayoniga sabab ko'rsating);

M (ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring);

U (fikringizni umumlashtiring). -Har bir o'quvchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozdagi FSMU ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'ldiradi.

3 -bosqichda:

-har bir o'quvchi o'z qog'ozlarini to'ldirib bo'lgach, o'qituvchi ularni kichik guruhlarga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlarga bo'lish usullaridan foydalangan holda o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib yuboradi;

-o'qituvchi har bir guruhga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

-o'qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozilishini taklif etadi.

4 -bosqichda:

-kichik guruhlarda avval har bir o'quvchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi.

Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

-guruh a'zolari FSMU ning 4 bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar;

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir o'quvchi o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5 -bosqichda:

-kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarni himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi (iloji boricha izoh bermagan holda). Ba'zi bo'limlarni isbotlashi, ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6-bosqichda:

-o'qituvchi darsga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan o'quvchilarga murojaat qiladi:

# International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

---

a) Ushbu dars yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarni o'rgandingiz?

b) Ushbu dars qanday samara berdi?

s) Ushbu mavzu o'quvchilarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

IZOH: Yuqorida keltirilgan savollar o'qituvchi tomonidan har bir darsning mazmuni, maqsadidan kelib chiqqan holda o'quvchilarga berilishi mumkin. Masalan: Mavzu: Kesim gapning mazmuniy markazi.

F (**fikringizni** bayon eting); Gapning mazmuniy markazini tashkil etib, boshqa bo'laklarni o'z atrofiga birlashtiruvchi, tasdiq-inkor, shaxs-son, zamon va mayl ma'nolarini ifodalovchi bosh bo'lak kesim deb ataladi.

S (Fikringiz bayoniga biron **sabab** ko'rsating): Kesim gapning mazmuniy markazini tashkil etganligi uchun boshqa bo'laklar qatnashmasdan ham kesim orqali gap hosil qilish mumkin.

M (Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) **misol** keltiring): Kelayapti. Boramiz.

U (Fikringizni **umumlashtiring**):

Yuqorida keltirilgan so'z bir gapni hosil qilmoqda. Agar gapda kesim qatnashmasa, gapning mazmuni bo'lmaydi. Kelayapti, boramiz degan so'zlar gapning mazmuniy markazi bo'lmokda. Kelayapti gapi hozirgi zamonni ifodalayapti. Boramiz gapi kelasi zamonda ifodalangan.

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki, o'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashishga yo'naltiradi, eng asosiysi, ularning o'qishga, fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir.

Hozirgi zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik darslar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijobiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, ijobiy fazilatlarini tarbiyalashga va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bugungi ta'lim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni mobaynida foydalanishga bo'lgan intilish, e'tibor kundan – kunga ortib bormoqda. O'qituvchi ushbu jarayonda o'quvchining shaxsiy takomillanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga muhit yaratadi va shuning bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) –

# International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, shuningdek o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan keng foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir qilish metodlari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ma'lumki, ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning ayrimlari tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija ko'rsatgan. Keng qo'llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda keng ko'lamli natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash jarayonida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” uslublarini, yangi mavzuni tushuntirish vaqtida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash jarayonida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil yetuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” texnologiyalarini dars mobaynida qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili fanini o'qitish jarayonini yanada takomillashtirish borasida o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

- ona tili fanini o'qitishda asosan nazariy ma'lumotlarga e'tibor berilgan bo'lib, o'quvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga yetarlicha diqqat-e'tibor qaratilmagan;
- ona tili fanida o'qitiladigan mavzular sinflar kesimida tahlil qilinganda, o'quvchi uchun murakkab bo'lgan ko'plab grammatik mavzularning borligi;
- ona tili fanini hayot bilan bog'lab o'tishga, ona tilimizning boy sharoitlaridan yetarlicha foydalangan tarzda, o'quvchilarga mazmunli, sodda va qiziqarli shaklda yetkazib berishga diqqat-e'tibor berilmagan;
- o'quvchilar darsliklardagi mavzularni o'zlashtirishida intilish, ishtiyoq, maylni paydo qiladigan, mantiqiy, kreativ, ijodiy fikrlashga chorlovchi mashqlar, topshiriqlar bugungacha o'z aksini topmagan;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishning yangi, samarali metodlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarini keng joriy etish talab darajasida emas;
- ona tili fanining ilmiy metodik ta'minoti yetarli darajada ishlab chiqilmagan;

# International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

-o'qituvchi va pedagoglarning metodik ta'minotini takomillashtirish, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari va mutaxassislar uchun masofadan o'qitish kurslari keng joriy qilinmagan;

-mavjud oliy ta'lim muassasalarida ona tili fani yo'nalishida o'qituvchi, pedagog, kadrlarni tayyorlash sifati hozirgi kun talablariga xos kelmasligi ona tili fanini o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos tarzda yangilashni taqozo etmoqda. Ona tili fanidan "Gapning ikkinchi darajali bo'laklari mavzusi o'rganilgandan so'ng o'quvchilarga "Guruhlarda ishlash texnologiyasi" yordamida "Men to'ldiruvchiman!" mavzusida ijodiy matn tuzish beriladi. Ushbu metod yakka tarzda, kichik yoki yakka tartibda, kichik yoki katta guruhlar tomonidan ham amalga oshishi ham mumkin.

Mavzu borasidan matn o'quvchilar yordamida taqdim etiladi. Bu texnologiya yordamida o'quvchilarning jamoada ishlash malakalari shakllantiriladi, xotirasi mustahkamlanadi, yozma yoki og'zaki savodxonligi o'stirilib, ijodiy matn yaratish ko'nikmasi yanada mustahkamlanadi. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imloviy savodxonligini mustahkamlash niyatida matn yaratish borasidan ko'pgina qiziqarli topshiriqlar taqdim etish mumkin.

Shuningdek, "Morfologiya" bo'limini o'tish vaqtida har bir so'z turkumi borasidan grammatik ertak to'qish vazifasi berilsa, o'quvchilarning grammatik savodxonligi yaxshilash bilan birgalikda mantiqiy mushohada qilish qobiliyati takomillashadi, ijodkorligi oshadi.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish sohasidagi muhim yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya metodlarini joriy etishdan iborat. Innovatsion texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini yanada takomillashtirib, ta'lim jarayonining markaziga o'quvchi va talabalarning o'quv bilish faoliyatini oshirishga yordam beradi, ta'lim jarayoni yaxlitligini ta'minlaydi.

O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish, iroda va faoliyatning o'quvchi ongining predmetiga aylanishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, dastlab, ta'lim beruvchi maqsadga eltuvchi texnologiyalarni tanlay bilishi, o'quv tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi zarur. O'qituvchi dars vaqtida boshqa ma'lumotni taqdim qilish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan intilishini oshiradi, balki o'quvchilarning erkin o'qishini talab darajasida rivojlantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning erkin fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z g'oyasini bayon etish, uni asoslangan tarzda himoya qila

# International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

---

bilish, sog'lom mulqot, munozara, bahs olib borish malakalari takomillashib, shakllanib boradi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishdan assosiy maqsad, o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish ona tili darslarini yanada kengaytirish ushbu yo'lda innovatsion texnologiya va metodlardan foydalanishni kuchaytirishdir. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish, ta'lim samaradorligini yanada shakllantirish uchun tinimsiz izlanish hozirgi kunning ehtiyojiga aylanmoqda. Yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish pedagoglar oldida turgan muammolardan biri hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari – T.: 2009
2. N.Sattarova. Ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashgan maktablarda o'quvchilarni tahlil qilishga o'rgatish usullari. Buxoro. 2016 y.
3. K.Usmonova. Adabiy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2015 y.
4. Shayxislamov, N.Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash mahorati. Science and Education,2020.
5. Shayxislamov, N., & Baykabilov, U. Til – millatning ma'naviy merosi. Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari ,2020.
6. Xolbekov, S.B. Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi. Science and Education, 2020.
7. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T., "Sharq", 2013.
8. Sayidahmedov N."Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003.